



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

“QANOT CHIQARGAN HOFIZ” HIKOYASI HAQIDA

Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi

Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti

Annotatsiya:

Maqolada Ismoil Ollaberganning “Qanot chiqargan hofiz” hikoyasi asosiy qahramonlarining xarakter xususiyatlari tahlili, hikoyadan anglashiladigan mazmun hamda asar xulosasi yoritib berilgan.

Kalit so’zlar: hikoya qahramonlari, ichki o’y-xayollar, yura olmaydigan hofiz, Eshim piyon obrazi, hikoya xulosasi.

Abstract:

In the article, the analysis of the character traits of the main characters of Ismoil Ollabergan’s story “Hafiz with Winged Wings”, the meaning of story, and the conclusion of the work are highlighted.

Key words: characters of the story, inner thoughts, Hafiz who can’t walk, Eshim Pion, summary of the story.

Абстрактный: В статье освещены анализ черт характера главных героев повести “Исмаила Оллабергана Хафиз с крылатыми крыльями”, смысл повести, а также заключение произведения.

Ключевые слова: персонажи повести, сокровенные мысли, Хафиз, который не может ходить, Эшим Пион, краткое содержание повести.

Hammamizga ma'lumki, azal-azaldan Xorazm buyuk ijodkorlarga, isde'dodli shoir-u yozuvchilar, turli sohalarning yetuk kashfiyotchilariga boy zamindir. Shunday Turonzamin vohamizning yana bir iste'dodli vakillaridan biri Ismoil Ollabergandir. Adabiyotning turli janrlarida muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan ijodkor tilining shiradorligi, o'zining asarlarida serjilo ma'nolar ifodasini ko'rsatganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Ismoil Ollabergan ijodi turli-tuman she'rlar, hikoya va nars-nazmdagi janrlarga boy bo'lib, uning ijodida "Qanot chiqargan hofiz" hikoyasi alohida ahamiyatga ega.

Ismoil Ollabergan asarlarida o'z mulohazalari, ibratga to'la , bebafo fikrlari yoritilgan. Jumladan, "Qanot chiqargan hofiz" hikoyasida ham buning yaqqol isbotini ko'rish mumkin. Hikoya voqealarini to'y tasviri va to'yga borgan kishining ichki xayollari, o'y-fikrlari asosida kechadi. Asar qahramonining ruhiyatida to'yda nogironligi sababli o'midan qo'zg'almay qo'shiq kuylagan hofizni manman , kibrlangan deb o'ylaganidan, qisqa fikrlaganidan afsuslanib, uyalish holati kechadi va hikoya oxirida hofiz uning tushida qanot chiqarib ko'klarga parvoz qilishi tasvirlanadi.

Hikoya qahramonning o'y-xayollarini bayon qilish asosida kechadi. Bu hikoyadagi har bir obraz asarga yanada mazmun va yangi sujet yuklaydi. Hikoyada voqealar va qahramonlar juda ko'p bo'lmasa-da, bu hikoyadan ko'plab xulosalar olish, yozuvchining qisqa satrlar orqali teran ma'no ifodalash mahoratiga guvoh bo'lismumkin. Bu jihatdan asar Abdulla Qahhor hikoyalarini eslatadi.

Hikoya qahramonlari Ozod, Rizvongul, Eshimboy (Eshim piyon), Shahlo va yura olmaydigan hofizlardir. Atiga shu qahramonlar orqali, darvoqe, faqat Eshim piyon va hofizni solishtirish orqali katta sujet hamda voqealar rivojidan foydalanmagan holda yozuvchi go'zal tasvir va halotni, insonning qisqa fikrliligi va shoshqoloqligi tufayli xato o'ylashi, noo'rin xulosalar chiqarishi, shuningdek, unga berilgan ne'matlardan oqilona foydalana bilmasligini hikoyada ta'sirchan ruhda ochib bera olgan.

Hikoya to'y tasviri bilan boshlanadi va bosh qahramon o'zining yoshligini, maktab davrlarini hamda sinfdoshlari haqida eslashi asarga o'zgacha tus beradi, kitobxonni o'ziga tortib,davomini tezroq o'qish uchun ishtiyoq va qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari, ijodkor shu go'zal tasvir, ya'ni to'y tasviri orqali o'zbekona milliy qadriyatlarimizni ham ochiq ko'rsata olgan. Misol uchun, davraboshining kattalarga-yu kichiklarga tabrik so'zları uchun navbat berishi, kelin tasviridagi bir necha holatlar yoki Eshim piyonning quyidagi jumlalari ham o'zbek to'ylarida aytildigan milliy kuy va qo'shiqlarni eslatib turadi:

" –Vey, mundoq o'rningdan tursang-chi! Qoqqan qoziqdek o'tiraverasanmi?
"Qarg'alar"ni ayt, "Olma pishganda galling"ni ayt axir!"¹

¹ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yuqoridagi satrlar orqali faqat milliylik tasvirini emas, balki Xorazm shevasining go'zal namunasini ham kuzatish mumkin. Bu esa asar badiyiligi, o'qishliligi va ta'sir kuchini yanada oshirishga xizmat qilgan.

Asardagi Eshim piyon obraziga alohida to'xtaladigan bo'lsak, u qo'lidan hech narsa kelmaydigan, o'ziga berilgan bus-butun qo'l-u oyog'idan to'g'ri foydalanmayotgan, ichimlik ichib, sog'lom oyog'ida ham tentirab yurgan, o'ziga berilgan nematning qadriga yetmaydigan, bu necha-necha insonlarning orzusi ekanligini xatto xayoliga ham keltirib ko'rмаган insonlar timsolidir. Yozuvchi bu qahramonni asarda keltirish orqali umri behuda o'tayotgan insonlarga afsus-u nadomatlarini, achinishlarini tasvirlaydi. Asardan olingan quyidagi diltortar misralar ham buni isbotlaydi:

"Xayol degan yomon narsa. Bir ilakishsa, ilakishaveradi. Uyga kelib ham to'ydagи nogiron qo'shiqchi haqidagi hayollardan qutila olmadim. Hech kimga nafi tegmaydigan, sog'lom oyoqlari bo'la turib, gandiraklab yurgan Eshim piyondan ijirg'andim. Shunday ajoyib ovozli san'atkorning esa imkoniyatini cheklab qo'ygan bevafo dunyodan hafa bo'lib ketdim"².

"Qanot chiqargan hofiz" hikoyasining bunday atalishiga sabab shundaki, hikoya oxirida bosh obraz tush ko'radi va uning tushida to'ydagи yura olmaydigan hofiz qanot chiqarib parvoz qiladi. Bu sujetdan esa hofiz hayotda o'z oyoqlari bilan yura olmasa-da, u o'zining yoqimli xush ovozi, boshqalarni o'ziga rom etadigan ohangi bilan ko'klarga parvoz etadi, olqishlanadi, shuning uchun ham u oyoqlari bilan yurmaydi, balki qanot chiqarib ko'klarga parvoz qiladi. Aksincha, Eshim piyon obrazi esa tushida ilon shaklida gavdalanadi, chunki u o'ziga berilgan ne'matning qadriga yetmay, sog'lom oyoqlarini sudrab yurish yo'lini tanlagan.

Hikoya so'ngida shunday jumlalar orqali yakunlanadi:

"...Qanotlarini yig'ib, oyoqlari orqali yura boshladi. Bog'loqlik turgan sigir va qo'y-echkilarning arqonlarini birma-bir yechib yubordi. "Xudo bularga oyoq ato qilibdimi, yayrab yursin-da, jonivar", - dermish. U yana qanot yoyib parvoz qildi. Butun olamni sehrli ohanglar chulg'ab oldi"³.

Bu misralar hamda butun hikoyadan Xudo bandalariga nasib o'laroq bergen har bir ne'matlarini qadrlash, behuda ishlatmaslik, kimlardir bu ne'matlarsiz ham shukr

² "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.

³ "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

keltirib, ularsiz ham yuksalyaptimi, demak, ulardan o'rnak olishimiz lozim, degan xuloasaga kelishimiz mumkin. Hikoyani yakunlovchi yuqoridagi satrlarda ham hofizning hayvonlar bo'ynidagi arqonlarni yechib, Xudo ularga ato etgan ne'matlaridan foydalanishini ta'kidlashi bu xulosani yanada oydinlashtiradi.

Ismoil Ollaberganning "Qanot chiqargan hofiz" hikoyasi o'zining mazmundorligi, juda qiziqlarliligi bilan kitobxonni o'ziga tortib turadi va xayol surishga, o'ylashga undaydi, inson ruhiyatiga ta'sir ko'rsata oladi. Bu esa yozuvchining mahorati va qalami o'tkir ijodkor ekanligining isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "O'zbek adabiyoti va san'ati" gazetasi. 2012-yil, 16-son.